



“HAKIM VA AJAL” DOSTONIDA HAQIDA MULOHAZALAR

Olim Jo‘rayev,
Buxoro viloyati

Annotatsiya. *Hayot o‘tkinchi, lekin inson yaratgan ezgulik, ilm, so‘z — abadiy.ekanligi, Hakim Ajalni yenga olmasa-da ezgu fikrlari va asarlari bilan uzoq yillar tiriklikka erishishi A.Oripovning “Hakim va ajal” dostonida eng muhim g‘oyadir. Demak, insonni abadiy qiladigan narsa — uning ezgu amali va ma’naviy merosidir. Maqolada “Hakim va ajal” dostonidagi qahramonlar xarakteri tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar. *hayot va o‘lim, inson va taqdir, abadiyat, badiiy obraz, ramz, konflikt, dialog, poetik tafakkur, kompozitsiya, lirik qahramon, g‘oya va mazmun.*


АННОТАЦИЯ. *Важнейшей темой поэмы А. Оripова “Хаким ва ажал” является мысль о том, что жизнь мимолетна, а добро, знание и слова, созданные человеком, вечны. Важнейшей темой поэмы А. Оripова “Хаким ва ажал” является мысль о том, что Судья, хотя и не может победить Вечного, может жить долгие годы благодаря своим благородным помыслам и деяниям. Итак, вечным человека делают его благородные деяния и духовное наследие. В статье анализируются характеры героев поэмы “Хаким ва ажал”.*

Ключевые слова: *жизнь и смерть, человек и судьба, вечность, художественный образ, символ, конфликт, диалог, поэтическая мысль, композиция, лирический герой, идея и содержание.*

Abstract. *The fact that life is fleeting, but the goodness, knowledge, and words created by man are eternal. The fact that the Judge, although unable to defeat the Eternal, can live for many years with his noble thoughts and works, is the most important idea in A. Oripov’s epic poem “Hakim va ajal”. So, what makes a person eternal is his noble deeds and spiritual heritage. The article analyzes the character of the heroes in the epic poem “Hakim va ajal”.*

Key words: *life and death, man and fate, eternity, artistic image, symbol, conflict, dialogue, poetic thought, composition, lyrical hero, idea and content.*

Abdulla Oripov turli yillarda xilma-xil va biri-biridan sermazmun dostonlar yaratgan. Shoir dostonlarida ham, xuddi she‘rlarida bo‘lganidek, hayot haqiqati ustalik bilan ochib berilgan. Shoir asarda ko‘tarilgan mavzuni tasvirlash, xususan, hayotda uchrovchi illatlarni fosh etishda turli xil tasvir vositalaridan, shuningdek, ramziy obrazlardan va har xil majozlardan o‘rinli foydalanadi. Abdulla Oripov „Jannatga yo‘l“, “Hakim va ajal”, “Ranjkom”, “Istiqlol manzaralari” kabi dostonlar muallifidir. Biz shoir dostonlarining tasnifi va mavzu ko‘lami haqida gapirar ekanmiz, dastlab doston va uning turlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. Doston — liro-epik turdagi badiiy asar. U o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va




o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri. Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko‘lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko‘p bo‘ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang bo‘lgan dostonlar nazmda bo‘ladi, bunda nasr voqealarni bog‘lovchi vazifasini o‘taydi. Yozma adabiyotdagi dostonlarda lirizm kuchliroq, ayniqsa, hozirgi zamon dostonlarida lirik asos yanada salmoqliroqdir. Doston, asosan, uch: lirik doston, epik doston, dramatik doston turlariga bo‘linadi. Bulardan tashqari lirik va epik xususiyatlarning birikuvidan tashkil topgan liro-epik doston turi ham mavjud. “Hakim va ajal” dostoni g‘oyasini ifodalashda uzoq o‘tmish mavzusidan o‘rinli foydalangan. Jahon tibbiyot inhining buyuk daholaridan biri Abu Ali ibn Sino haqida yozilgan bu dostonda umuman inson hayotiga taalluqli va abadiy dolzarb muammolar ko‘tarilgan. Asarda hayot va inson, ilm va o‘lim, olijanoblik va hasadgo‘ylik haqidagi hikmatli fikrlar badiiy tarzda gavdalantirilgan. “Hakim va ajal” dostoni (1990) A.A.Ibn Sinoning 1000 yilligiga bag‘ishlab yozilgan. Unda Hakim, Malika, Mirzo timsollari berilgan.

Abdulla Oripovning “Hakim va ajal” dostoni syujetiga xalq orasida buyuk tabib Ibn Sino nomiga bag‘ishlab yaratilgan bir necha rivoyat birlashtirib, ularning mazmuni singdirib yuborilgan. Shuning uchun u dostonchilikda sintezlashgan folklorizm ko‘rinishi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Unda Ibn Sino haqidagi uch rivoyat mazmuni asos qilib olingan. Jumladan, “Ibn Sino va kitoblar” nomli xalq rivoyatida Buxoro shahri xonining betob bo‘lib qolishi va uni Ibn Sinoning davolagani, buning evaziga kattagina kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo‘lgani, kutubxonaning hasadgo‘y tabiblar tomonidan yoqib yuborilishi voqealari hikoya qilinadi.

A.Oripov mazkur rivoyatdagi ikkita jihatga e‘tibor qaratgan: 1. Ibn Sinoning xonni davolashga Buxoroga kelishi. 2. Ibn Sino kutubxonasining hasadgo‘ylar tomonidan yoqib yuborilishi. Shoir rivoyat materialini badiiy qayta ishlab, uni mazmun jihatdan boyitgan. Dostonda Ibn Sino malikani davolashga keladi. Malika esa uni tabib sifatida saroyda qoldiradi. Ibn Sinoga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqi beriladi. Bu malikaga uylanish ilinjida yurgan vazirning o‘g‘li Mirzoga yoqmaydi. Malikaning kun sayin tabibga intilishini ko‘rib, hasadi qo‘zg‘aydi va saroyning boy kutubxonasini yoqib yuboradi.

“Zahri qotil” nomli rivoyatda Ibn Sino Eron shohining tund, hech kim bilan gaplashmaydigan, hech narsa yemayotgan qizini davolashi haqidagi voqealar aks etgan. A.Oripov ana shu rivoyatdagi asosiy voqelik – taniqli hakimning injiq tabiatli malika ruhiyatini davolashi motividan ijodiy foydalangan. Ammo dostonda malika Eron shohining emas, Buxoro podshohining qizi sifatida tanishtiriladi. Shunday bo‘lsa-da, dostonda voqealar, asosan, rivoyat syujeti yo‘nalishiga muvofiq tasvirlangan. Unda malikaning hashamlar ichida o‘tirishi-yu, hech kim bilan gaplashmasligi, hech narsaga hushi yo‘qligi aytiladi. Faqat Ibn Sino tashrifidan so‘ng malika ruhiyati va kayfiyatida o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Shoir rivoyatdagi mana shu jihatlarni dostonga olib kirgan. Ko‘rinyaptiki, dostonda aniq bir rivoyat mazmuni ijodiy qayta ishlangan.



“Ibn Sino va giyohlar” nomli rivoyatda yonar gul va uning xususiyatlari haqida hikoya qilinadi. Unda Ibn Sinoning cho‘ponni ilon zahri bilan davolashi, shu tufayli unga boshqa tabiblarning hasad qilishi va hakimni o‘ldirishga chog‘lanishi voqealari haqidagi rivoyat mazmuni doston mazmuni bilan birlashtirilgan. Dostondagi ijodiy qirralardan biri shunda kuzatiladiki, shoir rivoyatda cho‘pon deb berilgan personajni Mirzo ismi bilan nomlagan va shu orqali voqelikka aniqlik kiritishni ko‘zlagan. Shuningdek, yana bu farq personajlar xarakterida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, rivoyatda cho‘pon oqko‘ngil bo‘lsa, dostonda hasadgo‘y va ichiqora qiyofada namoyon bo‘ladi. Umuman, “xalq rivoyatlari va tarixiy voqealar asosida buyuk hakim va qomusiy alloma obrazini yaratish maqsad qilib qo‘yilgan doston san`at asarlarining markazida turadigan azaliy mavzular – manguilik va o‘limning mohiyati, ezgulik va hasadning azaliy kurashi muammosi badiiy yuksak, quyma satrlarda talqin etilishi” natijasida adabiyotimizda dostonchilikni yanada badiiy takomilga erishtira oldi. A.Oripov bir necha xalq rivoyatlari syujeti va tarixiy manbalarga tayanib, ulardagi ma`lumotlarni o‘z qarashlari, lirik kechinmalari bilan sintezlashtirgan holda yangicha uslubdagi yaxlit syujetli asar yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Yomonlikka qarshi o‘t ochish qayta qurish yillarida yozilgan “Ranjkom” dostonining ham bosh g‘oyasini tashkil etadi.

Xulosa sifatida aytish lozimki, Abdulla Oripov bu dostonda hayotni o‘lim orqali anglatadi. Uning fikricha, hayotning qadri o‘lim bilan o‘lchanadi, chunki umr cheklanganligi tufayli inson o‘z hayotiga mazmun kiritishga harakat qiladi. Hakim obrazida inson tafakkuri, ilm, adolat, ezgulik va vijdon mujassam. U o‘limni tan oladi, ammo shunchaki taslim bo‘lmaydi – u o‘lim bilan bahsga kirishadi. Bu bahs inson tafakkurining abadiyat bilan kurashidir. Ajal esa tabiat qonuni, muqarrarlik, chegaralilik timsolidir. U sovuq, ammo adolatli. U hech kinga yomonlik qilmaydi, lekin hech kimni ham ayamaydi. Shu tarzda yozuvchi hayot va o‘lim o‘rtasidagi abadiy ziddiyatni, insoniyatning o‘z mohiyatini anglash yo‘lidagi iztiroblarini badiiy shaklda ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova D. Yangi o‘zbek doston (poema)larida davr va shaxs fojeasining poetik talqini (Oybek, Mirtemir, S. Zunnunova, Zulfiya, E. Vohidov, A. Oripov dostonlari misolida): Filol. fan. fals. dokt... diss. – Toshkent, 2020.
2. Mirpo‘lat Mirzo. Sen misli kamalak – yuksak va o‘lmas... A. Oripov bilan suhbat// Jahon adabiyoti, 2011, №3.
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. 2-jild. Toshkent, 2001.
4. Sanjar Sodiq. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. Darslik. –T.: “Universitet”, 2005.